



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek tili va adabiyoti ta'limi fakulteti
4-kurs talabasi
gulshirintogonova0@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasi rivojlanirish usullari, shu usullar asnosida bajariladigan o'qib tushunish ko'nikmalarini sha kllantirishga :r topshiriqlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada ayniqsa, matnlar vositasida o'quvchilarda o'qib tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga :r mashq, test va topshiriqlar, ularni tizimli holatda tatbiq etish usullari o'ifodasini topgan. Maqolada o'quv jarayonida o'qib tushunish ko'nikmasi rivojlanirish usullari, shu usullar asnosida bajariladigan o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga :r topshiriqlar ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: O'qib tushunish bosqichlari, samarali usullar, test turlari, test topshiriqlari, topshiriqlar maqsadi.

Annotation

This article discusses the methods of developing students' reading comprehension skills in native language education, tasks for the formation of reading comprehension skills performed using these methods. The article also describes exercises, tests and tasks for the formation of reading comprehension skills in students, especially through texts, and methods for their systematic implementation. The article draws scientifically based conclusions about the methods of developing reading comprehension skills in the educational process, tasks for the formation of reading comprehension skills performed using these methods.

Key words: Stages of reading comprehension, effective methods, test types, test tasks purpose of tasks.

O'qib tushunish – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Bilamizki, tushunish degani yozma so'zlarni tushunish qobiliyatini anglatadi. Bu so'zlarni tanib olish qobiliyatidan farq qiladi. Bu haqda Sh.Abdiraimov maqolasida shunday yozadi: "Sahifadagi so'zlarni tanib olish, lekin ularning ma'nosini bilmaslik o'qishdan maqsad yoki maqsadni amalga oshirmaydi, ya'ni tushunish, masalan, o'qituvchi o'quvchiga o'qish uchun parcha bergenini tasavvur qiling. O'quvchi butun parchani o'qiy oladi, lekin o'qilgan narsani tushuntirishni so'rashganda, u hech narsa bilmaydi. Tushunish o'qilgan narsaga ma'no qo'shadi. O'qishni tushunish sahifadagi so'zlar shunchaki so'zlar emas, balki fikrlar va g'oyalar bo'lganda yuzaga keladi. Tushunish o'qishni qiziqarli va ma'lumotli qiladi. Bu matabda, ishda va umuman hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun kerak" [1. 27-bet].

Matnni o'qishdan oldin va o'qish jarayonida quyidagilarga e'tibor berilishi kerak:

1. Maqsadni aniqlash.



Bunda sizning shunchaki ustoz aytgani uchun o'qiyotganilingiz yoki imtihonga tayyorgarlik ko'rayotganlingiz maqsad sifatida aniq bo'lishi kerak. D. Tursunova "O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda matn bilan ishslash usullari" maqolasida matn o'qilayotganda vaziyatingizga qarab kalit so'zlar, ta'riflar, sanalar, tushunchalar va misollarga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi [2. 2-bet]. O'qilayotgan narsani maqsadga bog'lashni yodda tutish kerak. Asosiy fikrni aniqlash va matndan uni tushunishga yordam beruvchi tafsilotlarni topishga harakat qilish lozim. Buning uchun o'qish jarayonida so'zlarning, gaplarning, xatboshilarning ma'nosini tushunish muhim ahamiyatga ega. Matnni o'qish jarayonida savollar berish o'quvchilarga matn va uni yaratgan muallif bilan yaqindan muloqot qilish imkonini beradi. Bu uning nima o'qiyotganini aniqlashtirish va tushunishni anglatadi.

2. Matnni sarlavhasiga qarab uning nima haqida va umumiy mazmuni qanday bo'lishini taxmin qilish.

Kuchli fokus ham juda muhim. Matndagi asosiy fikrni bilish uchun kirish, xulosani ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari o'zingiz uchun qulay muhit yaratiladi (u kafeda, uyda mashinada bo'lishi mumkin). Telefon va boshqa qurilmalarni esa o'zingizdan uzoqroq saqlashga harakat qilishingiz lozim.

3. Matnni paragraflarga ajrating.

Masalan: Agar ilmiy matn bo'lsa, birinchi paragraf – xususiyati, ikkinchi paragraf – shakli, uchinchi paragraph – yashash tarzi haqida ekanligini belgilab qo'yilsa, mazmun tezroq anglashiladi.

4. Vizualizatsiya qilish, ya'ni matndagi voqealarni ko'z oldiga keltirish.


Bu tasvirning aqliy tasviri hisoblanadi. O'qiyotganda yozuvchi tomonidan yaratilgan tasvirlami qayta yaratish, ya'ni vizualizatsyaning vazifasi o'qilayotgan matnni tasavvur qilish, asosiy g'oyani yaxshiroq tushunish uchun o'quvchi o'zini o'sha joy, vaqt, davrda ko'rishi, voqealar va harakatlarni rivojlantirishdir. (Masalan, diagrammalar, rasmlar va boshqa vositalar orqali).

Badiiy matnlarda esa quyidagilarga e'tibor qaratilsa, matn mazmunini tezroq anglashga yordam beradi:

1. Matnning mazmuni va g'oyasini aniqlash.

2. Personajlar va ularning xarakteri.

3. Usul va tasvirlash vositasi(metafora, simvolizm taqqoslash)



Yuqoridagilarni topshiriqlar asosida tushunturush harakat qilamiz. Quyida badiiy uslubda yozilgan matnni taqdim etamiz:

Shaxsiy fikrim qani?

Ertalab Petrov bir qultum qahvasini ichdi-yu, xotinining peshonasidan o'pib, ishga otlanmoqchi bo'lib, ostonaga yetganda hayallab, cho'ntaklarini kovlashtira boshladi.

– Nimangni izlayapsan? – dedi xotini.

– Fikrim... mening fikrim... topilmayapti, – dedi Petrov kiyimlarini paypaslab, kissalarini kovlashda davom etarkan. – Qayoqqa tiqdim ekan-a!

– Anovi cho'ntagingdagi shalvirab turgan nima?

– Dastro'molcham, ming'irladi Petrov. – Fikrim qayoqqa daf bo'lдиykin-a?

U barcha cho'ntaklarini ag'darib ko'rdi, portfelini titkiladi, kiyimlarini qoqishtirib ko'rdi – topolmadi.

– Yo'q, – dedi u xotiniga. Sen bilmaysanmi, qayoqqa g'oyib bo'lganikin?

– Yaxshisi, hovliqmasdan, astoydil izlab ko'r.

Petrov yana cho'ntaklarini birin-ketin kovlashga tushdi. Afsuski, hech qayerda uning shaxsiy fikri yo'q edi.

– Shoshmay tur-chi, – deya xotini peshonasini tirishtirdi. Oxirgi marta sen uni o'tgan yili, yanvar oyida eslagandek bo'luvding, shekilli. Korxonangda yillik reja tasdiqlanadigan kuni-chi?

– Yo'q, xotin, adashyapsan. Men hali aqldan ozganim yo'qli, yillik reja muhokamasiga shaxsiy fikrim bilan borsam!..

– Hmm... Ha, aytmoqchi! Keyin vazirlikka chaqirishuvdi-ku? Ehtimol, fikringni o'shanda obketgan bo'lma tag'in?

– Nimalar deyapsan, xotin? Vazirlikka kim ham o'z fikri bilan boradi, a? Shunday nufuzli joyda, odatda, o'zgalarning fikriga qo'shilasan, bas! Yo'q, u gal fikrimni obketmaganman. Unda qayoqqa gumdon bo'ladi? Aslida bormidi o'zi?

– Bor edi, bor edi, mana, endi yo'q.

– Yopiray! Savil qolgur fikring qaysi kavakka kirib ketdiykin, a?

– Xotini chuqur o'yga toldi. Eri so'nggi paytlarda qaerlarga boruvdi, o'zi bilan o'z fikrini qachon obketuvdi?

– O, topdim! deb qiyqirib yubordi xotini. Esingdami, Bosh direktoringga tishini qayrab yurgan Simeonov degan shartaki xodimlaring bor edi-ku, o'shani ishdan bo'shatadigan kun esingdami?

– Fikringni o'sha kungi majlisga obketgansan. Yodingga tushdimi?

– Yodimda, dedi Petrov bamaylixotir. Lekin o'shanda bizdan majlis qarorini qo'llab-quvvatlashgina so'ralgan, xolos. Shaxsiy fikr hech kimni qiziqtirmagan.

Xotini javonini ochib ko'rdi.

– Balki sen uni muhim hujjatlaring saqlanadigan g'aladonga solib qo'ygandirsan?

– Qo'ygandim. So'ng bir marta olish uchun ochib... oldimmi yo yana solib qo'ydimmi, esimda yo'q.



– Menga qara, shu tobda shaxsiy fikring nega kerak bo'p qoldi? Nega yopishib olding? Axir, ishga ketyapsan-ku? So'rab qolsalar, "uyda qopti", deb aytarsan-da.

– Xo'p, aytarman. Mabodo, uni mutlaqo yo'qotib qo'ygan bo'lsam-chi?

– Qiyomat qo'pmas! Uningsiz ham binoyidek yashab kelyapsan-ku!

– To'g'riku-ya... Har holda, :m uningsiz yashash ham yaxshimas. Biror nozik joyda kerak bo'p qolsa, nima degan odam bo'laman?

– Kerak bo'lmaydi-yov...

– Yo'q, har holda, har holda... Biror joyda bordir u?

– Hech bo'lmasa, bir qur qarab ko'raylik-chi!..

Xotini shiddat bilan kiyim-kechak, ko'rpa-to'shaklarni ag'darishga tushib ketdi...

– Mana u! dedi xotini terlarini arta-arta, – Sen uni eski paltongning cho'ntagida qoldiribsang. Bu paltoni, bilasanmi, ikki yil oldin chiqitga chiqarib tashloving.

– To'ppa-to'g'ri, shaxsiy fikrim! – quvonib ketdi Petrov, – Ikki yil oldin opchiqqan ekanman-u, yana o'sha joyida paqqos unutib qoldiribman-a?

– Men paltoni yuvishga topshirvorgandim-ov. Bu yoqqa ol-chi, kirmoshinda fikring ivib, titilib ketmadimikin? – Shunday deb xotini aylantirib-aylantirib, silkib-silkib, puflab-puflab eriga fikrini qaytarib berdi. – Yo'q, jin ham urmabdi. Aksincha, xuddi yangidek.

– Albatta-da, men undan deyarli foydalanmadim, axir.

– To'g'ri qilasan. Menam paltongni bolaxonaga chiqarib tashlamoqchiydim. Baribir kiymaysan-ku!

– Menda yangisi bor-ku. Pochapo'stin.

– Endi fikringni boshqa, ko'rinarli joyga qo'y.

– Qutichagami, hujjatlaringning orasigami? Yaxshisi, eng ishonchlisi omonat daftarchangning qatiga joylab qo'ya qolganing durust.

– Shunday qilaman!

Petrov shaxsiy fikrini daftarcha qatiga joyladi-yu, xotinining peshonasidan o'pib, mammun holda eshikdan chiqdi.

1-topshiriq. Yopiq turdag'i test topshiriqlari. Bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshiriqlari.

1. Hikoya matni haqida to'g'ri ma'lumot berilgan qatorni toping.

A) Shaxsiy fikrning inson hayotidagi o'rni yoritilgan.

B) Har kim o'zining oilasida shaxsiy fikri bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

C) Fikrlarni eshitmaydigan jamiyat ochib berilgan.

D) Shaxsiy fikrning nima ekanligini tushunmaydigan inson tanqidga olingan.

2. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni toping.

A) Petrov yillik reja muhokamasiga shaxsiy fikri bilan borganligini aytgan.

B) Simeonovning ishdan bo'shatilishida hissasi borligi ifodalangan.



- C) Shaxsiy fikrning cho'ntagidan topilgani aytildi.
 D) Majlislarda hamma o'z fikrini bayon eta olishi ifodalangan.

3. Matn mazmunida aks etmagan ma'lumotni toping.

- A) Odamlar o'z fikrini :miy ravishda ilgari surmasa, jamiyat zaiflashishi ifodalangan.
 B) Rahbariyat fikrni eshitmasligi ko'rsatilgan.
 C) O'z fikriga ega bo'limgan inson baribir ham hayotda mavqega ega bo'lishi ochib berilgan.
 D) Fikrdan mahrum bo'lish shaxsiy rivojlanishga daxl soladi.

2-topshiriq. Ochiq test turi. Kengaytirilgan javob qiladigan test topshirig'i. Bu turdag'i test topshirigi mantiqiy fikrlash va fikrni asoslash muammolarga yechim taklif qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Berilgan gaplar qanday mazmuniy munosabat ifodalashga harakat qilgan?

1.Vazirlikka kim ham o'z fikri bilan boradi, a? Shunday nufuzli joyda, odatda, o'zgalarning fikriga qo'shilasan, bas!

J: _____

2.Lekin o'shanda bizdan majlis qarorini qo'llab-quvvatlashgina so'rال gan, xolos. Shaxsiy fikr hech kimni qiziqtirmagan.

J: _____

3-topshiriq. Yopiq test turi. To'g'ri - noto'g'ri shaklidagi test topshiriqlari.

Bu topshiriq binar turdag'i test topshirig'i bo'lib, yashirin ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. Dixatom (qarama-qarshi xarakterga ega) tushunchalar haqidagi bilimlarni tekshirishda qo'l keladi.

Hikoya qahramoni Petrov shaxsiy fikr :mo ham kerak emasligini aytgan.

Petrov shaxshiy fikrini majlisda qoldirgan

4-topshiriq. Yopiq test turi. Moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari.

Bu turdag'i test topshiriqlari matn qismlari orasidagi umumiyl ma'noni tushunish, mazmuniy bog'lanishlarni anglashga yordam beradi.

Petrov uni qidira boshladи.

4

Hech narsa bo'lmaydi, shusiz ham kam-ko'stsiz hayot 1
 kechiryapsan. 3

Hech qanday kuch insonning shaxsiy fikrini yo'qota olmasligi 2
 qaysi paragrafda berilgan?



Demak, hozirgi kunda ona tili ta'limida o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasi rivojlantirish usullari :miy ravishda diqqat markazida turgani o'rinnlidir. Matnlar vositasida o'quvchilarda o'qib tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishga :r test va topshiriqlar ham :miy yangilanishni talab qilib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari. Lingvodidaktikaning dolzARB masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent: ToshDO' TAU, 2022. 530 b. 27-30 betlar.
2. Tursunova D. O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda matn bilan ishslash usullari. Topical issues of Science. 2022.

References:

1. Abduraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari. Lingvodidaktikaning dolzARB masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent: ToshDO' TAU, 2022. 530 b. 27-30 betlar.
2. Tursunova D. O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda matn bilan ishslash usullari. Topical issues of Science. 2022.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/QDDN4565

OLIY TA'LIMDA “TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH” MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR

Tursun Shokirjon Alisher o'g'li

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi, "Synergy School" NTM o'qituvchisi
shokirtursun@hotmail.com*

ORCID: 0009-0000-9313-0522

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim bosqichida o'qitiladigan Lingvodidaktika asoslari fanining eng muhim mavzularidan biri – “Til o'rganish va til o'zlashtirish” mavzusini o'qitish jarayonida qo'llanadigan usullar androgogik va dizaynga asoslangan dars rejalishtirish yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Darsning kirish qismi, ma'ruzadan keyingi topshiriqlar, amaliy dars uchun tavsiyalar, baholash va refleksiya jarayoni dizaynlashtiriladi. Har bir bosqichining metodik, psixologik va ilmiy asoslari yoritilib, samaradorlik nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *til o'rganish, til o'zlashtirish, androgogika, motivatsiya, faollashtirish, refleksiya, vizual xaritalash.*

Аннотация. В данной статье на основе андрогогического и дизайнерского подходов к планированию уроков анализируются методы, используемые в процессе преподавания одной из важнейших тем дисциплины «Основы лингводидактики», преподаваемой на этапе высшего образования темы «Изучение языка и овладение языком». Проектируется вводная часть урока, задания после лекции, рекомендации к практическому занятию, процесс оценки и рефлексии. Освещены методические, психологические и научные основы каждого этапа, теоретически обоснована эффективность.



Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. <i>ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvahob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIJ TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSALARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSALARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSALARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'iy INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

